

"Uch avlod uchrashuvi"



Ushbu tadbirda Termiz shahridagi barcha mahalalardan "Keksalar maslahati" guruhi rahbarlari, "O'zbekiston qahramoni" unvoni sohibi, turli sohalarda fidokorona mehnat qilib, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan nuroniyalar, oliy ta'lif muassasalari professorlari, mакtab o'qituvchilari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, faol hamda probatsiya va profilaktik hisobda turuvchi yoshlar ishtirok etishdi.

Turli millat vakillarini mushtarak maqsad yo'lida bir davraga jam qilgan tadbir doirasida "Nuroniy jamg'armasi" respublika boshqaruvi bo'llim boshlig'i M.Umarov, "Nuroniy jamg'armasi" respublika bosh mas'ul xodimi U.Rahmatov, 95 yoshni qarshilagan Sharofiddin ota, o'rta yosh vakillari, yutuqlarga erishib kelayotgan shijoatli yoshlar nutq so'zladilar. 3 avlod vakillari dildan suhbat qurishdi. Samimiy muloqotlarda nuroniyalar va o'rta avlod vakillari tomonidan mamlakatimizda inson va uning qadr-qimmatini yuksaltirish, xalqimizning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish ustuvor vazifaga aylangani ta'kidlandi.

El suygan san'atkirlarning ona Vatan, do'stlik, ezgulik, hamjihatlik, mehr-muhabbat va tinch-totuv hayot tarannum etilgan kuy-qo'shiqlari barchaga yuqori kayfiyat ulashdi. Tadbir yakunida nuroniyalar mamlakat tinchligi va ravnaqi hamda xalqimiz farovonligini tilab, duoga qo'l ochishdi.